



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SANOATGA INJENER-TEXNIK KADRLARNI TAYYORLASHNING SOVET AMALIYOTI: MUAMMOLAR VA IJTIMOYIY-IQTISODIY NATIJALAR (1925-1941yillar)

Iymanova Dilafruz Abdimannobovna
University of Economics and Pedagogy, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada sovet industriallashuvi davrida sanoat tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash amaliyoti, uning tashkiliy xususiyatlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijalari kadrlar siyosati nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Maqolada muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash jarayoni markazlashgan rejali boshqaruv tizimi doirasida amalga oshirilgani, kadrlar siyosatida ma'muriy-safarbarlik usullari ustuvor ahamiyat kasb etgani ilmiy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, qisqa muddatli o'quv kurslari, ishlab chiqarish amaliyotiga tayangan ta'lim shakllari va mutaxassislarni boshqa respublikalardan jalb qilish kabi choralar sanoat korxonalarini mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgani ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimi sanoatlashuv jarayonini ta'minlashda muhim omil bo'lgan bo'lsa-da, uning amaliy tatbiqida qator muammolar mavjud bo'lgan. Jumladan, mahalliy kadrlarning yetarli darajada tayyorlanmagani, ta'lim sifati va ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblik hamda markazdan yuborilgan mutaxassislariga yuqori darajada tayanish holatlari kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Sovet industriallashuvi, muhandis-texnik kadrlar, kadrlar siyosati, ijtimoiy himoya tizimi, mafkuraviy tarbiya, partiya tashkilotlari, fabrika-zavod ta'limi, mutaxassislar tanqisligi, milliy muhandis kadrlar, ma'muriy-safarbarlik usullari, kadrlar tayyorlash tizimi.

СОВЕТСКАЯ ПРАКТИКА ПОДГОТОВКИ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНИЧЕСКИХ КАДРОВ ДЛЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ПРОБЛЕМЫ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ (1925-1941 г.г.)

Иманова Дилафруз Абдиманнобовна
Университет экономики и педагогики, профессор

Аннотация

В данной статье анализируется практика подготовки инженерно-технических кадров для промышленных отраслей в период советской индустриализации, ее организационные особенности и социально-экономические результаты с точки зрения кадровой политики. В статье научно обосновано, что процесс подготовки инженерно-технических кадров осуществляется в рамках централизованно-плановой системы управления, и что административно-мобилизационные методы получили приоритет в кадровой политике. В то же время указывается, что такие меры, как краткосрочные курсы повышения квалификации, формы обучения, основанные на производственной практике, и привлечение специалистов из других республик, направлены на обеспечение промышленных предприятий квалифицированными кадрами. По результатам исследования, хотя система подготовки инженерно-технических кадров являлась важным фактором обеспечения процесса индустриализации, в ее практической реализации имелся ряд проблем. В частности, отмечались случаи недостаточной подготовки местных кадров, несоответствие качества образования производственным потребностям и высокая степень зависимости от специалистов, направляемых из центра.

Ключевые слова: Советская индустриализация, инженерно-технический персонал, кадровая политика, система социальной защиты, идеологическое воспитание, партийные организации, заводское образование, нехватка специалистов, национальный инженерный персонал, административно-мобилизационные методы, система подготовки кадров.

SOVIET PRACTICE OF TRAINING ENGINEERING-TECHNICAL PERSONNEL FOR INDUSTRY: PROBLEMS AND SOCIO-ECONOMIC RESULTS (1925-1941yy.)

Iymanova Dilafruz Abdimannobovna
University of Economics and Pedagogy, Professor

Abstract

This article analyzes the practice of training engineering and technical personnel for industrial

sectors during the period of Soviet industrialization, its organizational characteristics and socio-economic results from the point of view of personnel policy. In the article, it is scientifically based that the process of training engineer-technical personnel is carried out within the framework of the centrally planned management system, and that administrative-mobilization methods have gained priority in the personnel policy. At the same time, it is indicated that measures such as short-term training courses, forms of education based on production practice, and attracting specialists from other republics are aimed at providing industrial enterprises with specialists. According to the results of the study, although the system of training engineering and technical personnel was an important factor in ensuring the industrialization process, there were a number of problems in its practical implementation. In particular, there were cases of insufficient training of local personnel, a mismatch between the quality of education and production needs, and a high level of reliance on specialists sent from the center.

Keywords: Soviet industrialization, engineer-technical personnel, personnel policy, social protection system, ideological education, party organizations, factory education, shortage of specialists, national engineer personnel, administrative-mobilization methods, personnel training system.

Sanoatlashtirish jarayonida injener-texnik kadrlarni tayyorlash masalasi sovet iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralgan. Ayniqsa, og'ir sanoat, energetika, mashinasozlik tarmoqlarini rivojlantirishda yuqori malakali muhandis va texnik mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA SHARHI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida 1925–1940-yillarda O'zbekistonda ishchi kadrlar muammolari, xalq xo'jaligida xotin-qizlar mehnatidan foydalanish va boshqa masalalar o'rganiladi. Xususan, A. Axunova, G. Shister, Sh. Ziyomov, F. X. Qosimov, K. O. Oqilovlar 1925–1941-yillarda respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarda xalqlarning o'zaro hamkorligi, kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ikki tomondan, ya'ni sobiq SSSRning markaziy tumanlaridan yuborilgan malakali ishchi va texnik kadrlar, ikkinchi tomondan esa turli maxsus kurslarda mahalliy millat vakillarini o'qitish orqali birmuncha kadrlar ehtiyoji qondirilganligini yoritadi.

Shuningdek, mustaqillik davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur muammoni kompleks tarzda yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, R. Murtazayeva, A. Golovanov, Ya. A. Abdullayeva, R. Bazarbayev, S. Tursunov, S. Shodmonova, D. A. Iymanova kabi olim va olimalarning ishlarida O'zbekistonda sovet boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning mafkuraviy asoslari hamda markazlashgan hokimiyat mexanizmining mohiyati ilmiy tahlil qilingan. O'zbekistondagi boshqaruv tizimi, kadrlar salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatgan ta'sirini ochib berish bugungi tarixshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-metodologik usullar qo'llanilgan: qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional yondashuv, umumiylik, alohidalik va xususiylik tamoyillari. Mazkur falsafiy-metodologik usullar an'anaviylik va zamonaviylik jarayonlarini taqqoslab tahlil qilish, muammolarni turli burchakdan ko'rib chiqish hamda tadqiqot ma'lumotlarini tizimli ravishda yig'ish va tahlil qilishga imkon beradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida yoshlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini va estetik didi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik falsafiy nuqtayi nazardan o'rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston SSR sharoitida injener-texnik kadrlarni tayyorlash markaz tomonidan belgilab berilgan rejalarga muvofiq tashkil etiladi. Respublikada oliy texnik ta'lim muassasalarining faoliyati, texnikumlar va ishlab chiqarish maktablari tizimi asosan Ittifoq ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur paragrafda sovet davrida sanoat uchun injener-texnik kadrlarni tayyorlash amaliyotining shakllanish bosqichlari, uning amaliy mexanizmlari hamda mavjud muammolari arxiv manbalari va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.

1925-yilda O'zbekiston SSR tashkil topgandan keyin hali respublikada zamonaviy sanoat korxonalarini qurilmagan, mavjud korxonalarining texnik darajasi eskirgan bo'lib, ularning moddiy-texnik bazasi zamon talablariga javob bermasdi. Muhandis-texniklar hamda yangi texnikani biladigan malakali ishchilar nihoyatda tanqis bo'lgan. Bu davrda mahalliy muhandis ziyolilari endigina shakllana boshlagandi. O'zbekistonda mahalliy millat ichidan ishchilarni korxonalar rahbarlari lavozimiga ko'tarish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat aholining shakllangan an'analari va ijtimoiy tuzilishiga bog'liq edi. Shu sababli mutaxassislar yetishmasligi markazdan jo'natilgan ziyolilar hisobidan qoplanib turildi.

Dastlabki yillarda markazdan kelgan injenerlar va texnik xodimlar milliy texnik ziyolilarni shakllantirish ishiga ma'lum darajada hissa qo'shdilar. O'zbekistonda malakali ishchi kadrlarni tayyorlash bilan birgalikda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda injener-texnik va sanoat xodimlarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha turli kurslar va maktablar tarmog'ini ko'paytirish yo'li bilan muammo hal etila boshlandi. Bunda maktablar mamlakatning qariyb barcha yirik korxonalarida barpo etilgan edi. O'sha davrda ko'pchilik ishchi-texnik kadrlar asosan korxonalarda, yakka o'qitish tartibi va brigadalarda o'qitish orqali tayyorlangan edi. Shuning uchun respublika kasb-hunar o'qitish sohasida FZU maktablarida kadrlar tayyorlashni ko'paytirish, mahalliy millat vakillaridan ishchilar tayyorlash kabi masalalar dolzarb bo'lgan [1].

Mazkur davrda sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, rahbar va ishchi kadrlarning texnik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish masalalari partiya va davlat qurultoylari qarorlarida ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yildi hamda strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etildi [2]. O'zbekistonda mazkur yo'nalishda o'quv yurtlari tarmog'ini keng rivojlantirish bilan bir qatorda, kadrlar tayyorlashning boshqa yo'llaridan, jumladan, eng malakali ishchilarni injener-texnik va rahbarlik lavozimlariga ommaviy ko'tarish va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ularni tayyorlashni tashkil etishdan ham foydalanildi. O'zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarishning ko'plab amaliyotchilari, jumladan, o'zbeklar injener-texnik va rahbarlik lavozimlariga ko'tarildi. Rahbarlikka ko'tarilganlar uchun ochilgan maxsus kurslarda lavozimlarga ko'tarilgan ishchilar, texniklar o'zlarining nazariy bilimlarini oshirib bordilar. Bu mahalliy kadrlarni tayyorlashning usullaridan biri edi. Bu davrda ittifoqdosh respublika sharoitlarida mahalliyashtirish tamoyillari bosimlarga qaramasdan o'z kuchida qolayotgan edi. Mahalliyashtirish muammosiga qiziqish hali so'nmagandi. Quyi idoralar yuqori idoralar oldida hisob berib turishardi. U yoki bu korxonadagi tub aholi soni va injener-texnik xodimlar o'rtasidagi ularning solishtirma salmog'i haqidagi statistik ma'lumotlar yuqori idoralarga hali kelib turardi. Xalq komissarlarining mahalliyashtirish va tub aholiga ona tilida xizmat ko'rsatish masalasi bo'yicha hisobotlari turli majlislarda davriy ravishda eshitilib turardi [3]. O'zbekistonda sanoatlashtirishning ilk bosqichida mutaxassislarni tayyorlash borasida yuzaga kelgan muammoli vaziyatni mamlakatning sanoati rivojlangan markaziy hududlaridan mutaxassislar olib kelish amaliyoti orqali hal qilish ham qo'llana boshlandi.

1930-yilda Butunittifoq Bolsheviklar Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining noyabr Plenumida injener-texnik kadrlar tayyorlash to'g'risidagi qarorlarini qo'llab-quvvatlagan holda sotsialistik qurilishning ulkan ko'lami kengayishi ta'kidlandi. Sotsialistik qayta qurish davridagi besh yillik rejalar, texnik vazifalarning murakkabligi partiya va ishchilar sinfi oldiga yangi texnik mutaxassislar tayyorlash muammosini zudlik bilan hal etish zarurligini qo'ydi. Mazkur qarorning qat'iy sinfiy siyosat bilan amalga oshirilishini ta'minlashda oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda birinchi o'ringa O'zbekistonning tub xalqlari tarkibidagi talabalar va ishchilar, fermer xo'jaliklari, kolxozchilarni jalb etish zaruriyati qo'yildi [4]. Partiya xo'jalik xodimlarining bilimlarini oshirish, injener-texniklar tayyorlash yuzasidan bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi [5]. Sanoat akademiyalari tarmoqlari kengaytirildi. Akademiyalar 1927-yildan tashkil etila boshlagandi. Bu akademiyalarda sotsialistik sanoatning rahbar kadrlari o'qirdilar. Besh yil ichida industriya oliy o'quv yurtlarining soni deyarli 10 baravar, texnikumlarning soni 4 baravar ortdi. Besh yillik mobaynida yirik sanoat 100 mingga yaqin injener-texniklar oldi. Bu yangi sovet ishlab chiqarish-texnika intelligensiyasi edi. Zavodlarda, yangi qurilishlarda ishchilar maorifi kombinatlari tashkil qilindi, bu kombinatlarda yangi kasblar o'rgatildilar. 1931-yildan boshlab ko'p korxonalarda texnikani egallashning yangi taomili — texnikadan imtihon topshirish amalga oshirila boshlandi. Fabrika-zavod shogirdlari maktablari va shu kabilarning soni ko'paydi [6]. Ishchilarning tashabbusi bilan keng jamoatchilik orasida texnika imtihonlari o'tkazilib turildi, yoshlar keksa ishchilarga birlashtirildi. Respublika korxonalarida ko'plab texnika o'rganish to'garaklari tuzildi [7]. Shu sababli kadrlarni o'qitish va ishchilar malakasini oshirish ishlari hunar-texnika o'quv yurtlari bilan bir qatorda, bevosita ishlab chiqarishning o'zida keng miqyosda olib borildi. Mehnatkash ziyolilarning qo'rquvdan emas, balki vijdonan sotsialistik qurilish frontida mehnat qilishlari ta'kidlandi [8]. Masalan, birgina 1930–1931-yilda to'rt oylik rahbar xodimlarni tayyorlash bo'yicha rayon kurslarida 270 kishi mashg'ul edi [9]. Texnikaviy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan sanoat rahbar kadrlariga ehtiyojning o'sib borayotganini hisobga olib, mustaqil o'quv yurtlari sifatida sanoat akademiyalari tarmog'i tashkil qilindi. 1931-yilda mamlakatdagi 13 ta sanoat akademiyasidan 6 tasi, shu jumladan, Toshkentdagi O'rta Osiyo sanoat akademiyasi yangi tashkil etilgan akademiyalar edi. Birinchi yili bu yerda 160 kishi ta'lim oldi, ulardan 16 tasi mahalliy millat vakillari edi [10]. O'zbekiston partiya tashkiloti partiya XVI s'ezdining qarorlariga asosan ishlab chiqarish-texnika ziyoli kadrlarini

tayyorlash sohasidagi ishlarni kuchaytirib bordi. Birinchi besh yillikda reja O'zbekiston sanoati uchun injener-texnik kadrlarni qariyb 4 baravarga ko'paytirish, 1928–1929-yillardagi 574 kishidan 1932–1933-yillarda 2443 kishiga yetkazish mo'ljallangandi [11]. Sanoat akademiyalari tarmog'ining kengayishi va kadrlar tayyorlash rejalarining keskin oshirilishi respublika sanoatini mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan maqsadli siyosatning amalga oshirilganidan dalolat beradi. Biroq mahalliy millat vakillarining umumiy kontingentdagi ulushi past bo'lib qolgan kadrlar tayyorlash jarayonida milliy muvozanat masalasi yetarli darajada ta'minlanmaganini ham ko'rsatadi.

Yangi sovet ziyoli injener-texnik kadrlarining shakllanishiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu jarayon O'zbekiston miqyosida ruslashtirish va qat'iy sinfiylik asosida olib borilgan bo'lsa-da, tez sur'atlarda o'sib bordi. O'zbekistonda XX asr 30-yillarigacha qator oliy ta'lim muassasalari tashkil etilganidan so'ng diplomli mutaxassislarni tayyorlash ancha kuchaygan. Bu vaqtga kelib, respublika 11 mingga yaqin oliy ma'lumotli mutaxassisga ega bo'lib, ularning katta qismi mahalliy oliy o'quv yurtlarini tugatgan edi. Ularning safida 2828 nafar muhandis, 1150 nafar iqtisodchi, 1016 nafar agronom, 345 nafar zootexnik va veterinar shifokor, 2155 nafar shifokor, 2458 nafar pedagog bor edi [12]. Milliy ziyolilarni shakllantirishda ma'lum ijobiy natijalarga ham erishilgan. Barcha aqliy mehnat bilan band bo'lganlar ichida 1939-yilda o'zbeklar 50% ni, ziyolilar orasida 44% ni tashkil etgan. Ijod jamoalarida band bo'lgan ziyolilar ichida ular 58% ni, ishlab chiqarish sohasida 15% ni va ilmiy sohada 10% ni tashkil etgan [13]. Ko'pgina ishchilar respublikadagi eng yirik sanoat korxonalarining injener-texnik va rahbarlari lavozimlariga saylandilar. Masalan, ishchi Said Xodjayeov o'zbeklar orasida birinchi injener-elektrik darajasiga erishdi [14], ishchi Muxtor Saidov "Santo" neft konining boshqaruvchisi bo'ldi [15]. Toshkent okrugining o'zidayoq 1928-yilning iyul–avgust oylarida kasaba uyushmalari tomonidan sanoatning rahbar lavozimlariga 268 ishchi ko'tarildi, ularning 108 nafari mahalliy millatlarga mansub edi [16]. 1929-yil 1-oktyabrgacha sanoat sohasida hammasi bo'lib 232 muhandis-texnik xodim ishlagan bo'lsa, ulardan faqat 94 nafari oliy va 95 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega edi, qolganlari amaliyotchilar edi. 1937-yilga kelib ularning soni 6 ming kishiga yetdi [17]. 1940-yilning oxiriga borib O'zbekiston xalq xo'jaligida 649 ming ishchi va xizmatchi band bo'ldi. Sanoat ishlab chiqarishida 5,3 ming oliy ma'lumotli muhandis va 6,1 ming o'rta maxsus texnik xodimlar mehnat qildi. Umuman olganda, milliy ziyolilar shakllanishida bu davrda ayrim ahamiyatli yutuqlar ham bo'lgan. O'zbekiston va jahon ilm-fani hamda madaniyatiga katta hissa qo'shgan ilmiy va ijodiy insonlarning ko'pchiligi o'z ilmiy yo'li va ijodiy faoliyatini aynan 1930–1940-yillarda boshlaganlar.

FZU maktablarida stipendiya asosiy kasblarga qarab 60 rubldan 120 rublgacha to'langan [18]. Ishsiz yoshlar va xotin-qizlarning ko'pligi inobatga olinib, ularni ish bilan ta'minlash, kelgusida zarur kadrlarni tayyorlash maqsadida mavjud ko'rsatmalar, tezkor chora-tadbirlar asosida, ayniqsa, mahalliy aholi vakillaridan malakali ishchi kuchi qabul qilindi. Ularning malakasini oshirish va tayyorlash zarurligi ta'kidlandi [19].

O'zbekistonga markazdan ishchilarning taklif etilishi aholining betartib migratsiyasini keltirib chiqargan, chunki ishchilar va muhandis-texnik mutaxassislar bilan birgalikda ularning oilalari ham kelgan va ularning soni kelgan ishchilarnikidan bir necha barobar ko'p edi. Masalan, 1933-yilda Toshkentda to'qimachilik kombinati qurishga kelgan 286 muhandis-texnik ishchi bilan birga 810 nafar ularning oila a'zolari, 864 nafar ishchi bilan birga 2414 nafar ularning oila a'zolari ham keldi. 1926–1939-yillar oralig'ida O'zbekiston aholisi 1 700 000 kishiga ko'paygan va ulardan 650 ming kishini SSSRning markaziy hududlaridan kelganlar tashkil etgan. Natijada respublikada Yevropa millatiga mansub aholining 6,4 foizdan 15% ga o'sishiga sabab bo'ldi [20]. "Qizil-Sharq" parovoz-remont zavodida texnika o'quvi kengaydi. 800 dan ortiq ishchi yuqori tipdagi texnika minimumi kurslarida o'qib, slesar, qozonchi, qolipchi va tokarlik malakasini egalladi. 950 kishi ishlab chiqarishdan ajralmagan holda kechki texnikumlarda o'z malakasini oshirdi. Zavodda tashkil etilgan sotsialistik mehnat masterlari maktabini 160 kishi bitirib chiqib, ishlab chiqarish komandirlari sostaviga qo'shildi. 1940-yilda shu maktabni bitirib chiqqan 160 kishi master, inspektor, sex boshlig'i lavozimlariga ko'tarildilar [21].

1934-yilga kelib mahalliy aholini ham keng miqyosda o'qishga jalb qilishga e'tibor qaratildi. 1935-yil 29-dekabrda MIQ va SSSR XKKning "Oliy o'quv yurti va texnikumlarga qabul qilish to'g'risida"gi qarorining e'lon qilinishi natijasida avvallari ijtimoiy kelib chiqishiga qarab o'qishga qabul qilinishga chek qo'yildi va rasman barcha aholiga oliy ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati tug'ildi [22]. 1930-yillarda Samarqand, Buxoro, Qo'qon va Farg'onada ishchilar tayyorlovchi 4 ta universitet faoliyat yuritgan. 1930–1932-yillarda turli sohalar bo'yicha 13 ta oliy o'quv yurti, 1934-yil oxiriga kelib esa 12 ta oliy texnika o'quv yurti tashkil etilgan. Ularning eng yirigi O'rta Osiyo sanoati instituti edi. 1934-yil oxirida

5 ta ishchilar universitetida 2983 kishi ta'lim olar edi [23]. Respublikada 50% kadrlarni tayyorlash mas'uliyati Toshkent viloyatiga, ayniqsa, Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Ma'lumki, Toshkent viloyati ilg'or hudud hisoblangan [24]. Shuningdek, markaz zo'r berib Moskva, Leningrad, Saratov, Omsk, Sverdlovsk va boshqa shaharlarning oliy o'quv yurtlari va bilim yurtlarida butun O'rta Osiyo respublikalari uchun rahbar kadrlar va muhandis-texnik ishchilarni tayyorlab berdi. Aksariyat o'quv yurtlarida o'qitish yomon ahvolda bo'lib, o'quv rejalari ko'p joylarda ishlab chiqilmagan, tashkilotlar bilan jonli aloqalar bo'lmagan, tashkiliy ishlar nomigagina olib borilgan. Ko'p yerlarda o'quv binolari mavjud bo'lmagan. Buning ustiga ishchilarning ko'pchiligini 50–60 yoshlilar, uy bekalari, tugallanmagan o'rta ma'lumotlilar tashkil etardi. Ularga esa, o'z navbatida, yangi texnikani o'rgatish ancha mushkul bo'lgan. O'zbek tilida adabiyotlarning yo'qligi esa o'quv jarayoniga yanada salbiy ta'sir ko'rsatgan. Sex boshliqlari, fabrika ustalari ham o'z vaqtida darsga kelmaganlar [25]. Bunday holatga barham berish uchun sovet hukumati joylarda rahbar kadrlar tayyorlashga ham jiddiyroq e'tibor berishga majbur bo'ldi. Natijada O'zbekistonda sanoat sohasida muhandis-texnik rahbarlar soni 1928–1929-yilda 574 tadan, 1932–1933-yilda 2443 taga yetdi, ya'ni deyarli 4 baravarga oshdi. Oliy o'quv yurtlari va bilim yurtlarini tamomlagan bitiruvchilarning ko'pchiligi tajribali sanoat ishlab chiqarish rahbarlari, konstruktor va olimlar edi. Ulardan X. M. Abdullayev, M. T. Urazbayeva, M. Z. Xamudxonovlarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, sanoatda mahalliy millat ishchilarining salmog'i ham oshib bordi. 1933-yilda og'ir sanoat korxonalarida 37% ni, yengil sanoat korxonalarida esa 57,3% ni tashkil etdi [26]. Sanoat korxonalarining rahbarlari asosan yevropaliklar edi. Ko'plab og'ir sanoat korxonalaridagi rahbar kadrlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 16 kishidan 1 tasi o'zbek edi [27]. 1935-yilda O'rta Osiyo sanoat akademiyasidagi 39 ta xodimning birortasi o'zbek emas edi [28]. Sovet hukumati qarorlarida mahalliy millat vakillaridan ishchi, muhandis-texnik va rahbar kadrlar tayyorlashga “e'tibor berish”ga harakat qilinayotgandek ko'rinsa-da, amalda buning aksini ko'ramiz. Chunonchi, 1938-yilda O'zbekiston Mahalliy sanoat xalq komissarligi raisi Karimov bo'lsa ham, komissarlikning qolgan sohalar bo'yicha rahbarlarining barchasi Yevropa millatiga mansub kishilardan iborat edi. Masalan, kadrlar bo'yicha Barsukov, reja-iqtisod bo'limi rahbari Vashkov, metall va yog'ochni qayta ishlash sanoati boshlig'i Konstantinov va bosh muhandis Dementev, Quvasoy sement-ohak zavodi direktori Abramov, Bekobod (Xilkovo) sement zavodi rahbarlari Gilman va Tarnovskiy, sement-ohak boshqarmasi raisi Panchenko, yangi qurilish materiallari zavodi direktori Kogan, Jizzax ohak zavodi direktori Ulyanov, tog'-kon tresti rahbarlari Chistyakov va Devushkina, g'isht sanoati boshqarmasi boshlig'i Svetakov va Pulla, O'zpoligrafkombinati direktori Voronin, yordamchisi Arxangelskiy, un-guruch-yorma sanoati boshqarmasi rahbari yordamchisi Xloponina, mahalliy sanoat xalq komissarligi qoshidagi ilmiy-tekshirish instituti direktori Titovlar edi. Faqatgina ba'zi zavodlarning sex va bo'limlaridagina mahalliy millat vakillari rahbarlik qilgan, xolos [29]. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa chiqarish mumkinki, milliy kadrlar tayyorlash masalasi amalda emas, balki qog'ozdagina hal etilganligini ko'rish mumkin [30].

1938-yilda O'zbekiston sanoatida injener-texnik xodimlar orasida xotin-qizlar 21,5% ni tashkil qilgan bo'lsa, bulardan qariyb 50% i mahalliy millat xotin-qizlari edi [31]. Sanoatni keng miqyosda rekonstruksiyalash va yangi texnikani o'zlashtirish uchun kurash davrida yangi kadrlarni o'qitish bilangina cheklanib qolmasdan, balki ishchilar sinfi butun armiyasini zamonaviy texnika bilan puxta qurollantirish zarurligi ko'rinib qoldi. Yengil sanoat rahbariyati: “Sanoat hali ham qoniqarli ishlamayapti. Bu yerda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi ham qoniqarli emas, mening fikrimcha, bugungi kunda u sanoat oldida turgan vazifalarga javob bermaydi. Biz, aslida, eski kadrlar ichida qaynab qolganmiz va yangi kadrlar, yangicha fikrlaydigan kadrlarni olishda muammolarga duch kelmoqdamiz. Mana, talabnoma yuborildi: qayta tayyorlash kurslariga 10 ta injener-mexanik yuboring, deb. Lekin biz qanchalik istasak ham, buni qila olmaymiz, chunki mexaniklarni amaliyotga yuborsak, taxminan 6–7 oyga zavodni mexaniksiz qoldirib, zavodning to'xtab qolishi holatiga duch kelamiz. Shuning uchun har bir zavodda individual shogirdchilik tizimi joriy etilishi kerak. Doimiy ravishda ishchi, injener-texnik kadrlarni tayyorlash bilan shug'ullanish lozim. Masalan, Farg'ona № 1, Andijon № 2 zavodida biz kolxozchilar va ishchi farzandlaridan yoshlarni tanlab, individual shogirdchilik tizimini yaratishga majbur bo'ldik. Andijon № 2 zavodida bir necha kadrning malakasi oshirildi, ishlash darajasi yaxshilandi. Ammo Farg'ona № 1 zavodida ish holati juda qoniqarsiz bo'lib qolmoqda”, — deb ta'kidlagan edi [32]. Bundan ko'rinib turibdiki, respublikadagi zavod-korxonalarda texnik va mexanik kadrlar yetishmovchiligi yuqori darajada kuzatilgan. O'zbekiston ip sanoati markaziy korxonalarini mazkur xomashyo bilan ta'minlaydigan sanoatning 60% ini tashkil qilgan [33].

Rahbariyat tomonidan muhandis-texnik xodimlarning iqtisodiy bilimini oshirish kerakligi

bo'yicha topshiriqlar ham doimiy berib turilgan [34]. Texnikani egallashga qodir bo'lgan va undan to'liq foydalana oladigan kadrlar muammosini hal qilish uchun "hamma narsani kadrlar hal qiladi!" degan shior maydonga tashlandi [35]. Partiya, xo'jalik va kasaba uyushma tashkilotlari sanoat va ishlab chiqarishga kelayotgan yosh ishchilar bilan mutlaqo qoniqarsiz holatda ish olib borgan. Ishchilar bilan ish holatini muhokama qilish, yangi ishchi kadrlarni ushbu ishlab chiqarishning ahamiyati, uning texnologiyasi, zarur malakani egallash shakllari bilan tanishtirib, joylarda ishlab chiqarishga kirish kurslarini tashkil etish zarurligi ko'ringan [36]. Mahalliy rahbar xodimlarning ayrimlari boshqarish mahoratini yaxshi egallay olmagan edi. Bunga ayrim korxonalar va muassasalar rahbarlarining lavozimlarga ko'tarilganlarga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashlari, ularning ishlashlari uchun shart-sharoit va yordamning yetishmasligi hamda samarasizligi ham sabab bo'lardi. Jumladan, davlat qurilish trestlarida mahalliy millatga mansub rahbarlarga e'tiborsizlik va ishonchsizlik bilan qarashgan. Iste'dodli, bilimli ko'pgina ishchilar eng yirik sanoat korxonalarining injener-texnik va rahbar lavozimlariga saylandilar.

O'zbekistonda MTSlar 1929-yilda tuzilgan bo'lsa, 1940-yilga kelib 189 ta qudratli traktor parki mavjud bo'lib, ularda 22 mingdan ziyod traktor, 150 ta kombayn va yer haydashni deyarli to'la, ekishni hamda qator oralarini ishlashni qisman mexanizatsiyalashtirishga imkon beradigan boshqa texnikalar ham bor edi [37].

1940-yilda 30 mingdan ortiq ishchi va xizmatchi tayyorlanishi kerak bo'lgan korxonalarda texnik tayyorgarlik kurslari ishini sifatli tashkil etishning alohida ahamiyatini qayd etib, O'zbekiston KP(b) MK partiya tashkilotlariga professor-o'qituvchilar tarkibini tanlashning to'g'riligini, o'qitish sifatini, shart-sharoit yaratilishini zudlik bilan tekshirish zarurligini ta'kidlaydi. Tez rivojlanayotgan sanoat va qishloq xo'jaligining yangi xo'jalik tarmoqlarini boshqarish uchun qo'shimcha ishchi, muhandis-texnik va rahbar kadrlar talab qilinardi [38]. Ishchilar uchun texnik bilimlarni olishning to'liq kursini yakunlash, texnik bilimlarni egallashi va staxanovchilikning ishlash usullarini rivojlantirish atrofida ommaviy animatsiya yaratish zarurligi ko'rsatilgan [39]. Partiya tashkilotlari ko'pgina korxonalarda, ishlab chiqarishda mahalliy millat vakillari, ayniqsa, xotin-qizlarning kam sonligi e'tiborga olinib, ularni ham korxonalariga doimiy ravishda mehnatga jalb etish choralarini ko'rdi. Xotin-qizlar, ishchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni olib borish, ularni hunarmandlar safiga jalb etishni asosiy vazifalardan biri qilib belgilash ko'rsatilgan [40]. O'zbekiston xalq xo'jaligida malakali ishchilar soni 1940-yilda 1926-yilga nisbatan 8,6 barobar, sanoatda 15,4 baravar, shu jumladan, injenerlar 9,4 baravar ko'paydi [41].

XULOSA

Sovet hukumati O'zbekistonda sanoat qurilishini sun'iy jadallashtirgani kabi, ishchilar va injener-texniklarni markaz manfaatlariga mos ravishda hududlarga joylashtirishda ham shunday siyosatni amalga oshirdi. Shuningdek, sovet tizimida olib borilgan kadrlar siyosatida ichki qarama-qarshiliklar ham mavjud edi. Respublikadagi malakali ishchi kadrlarga bo'lgan talab chetdan emas, balki joylarning o'zida keng miqyosda tayyorlash orqali tashkil etilganda, sanoat ishchilarini shakllantirish jarayoni ancha oqilona va tejamli bo'lishi mumkin edi. Biroq sovetlar hukmronligi sharoitida mafkura iqtisodiyotdan ustunlik qildi. Markaz milliy hududlarda imperiya tuzumining tayanchi bo'lgan ijtimoiy qatlam — proletar sinfini vujudga keltirishdan manfaatdor edi. Bu esa stalincha ma'muriyatning ruslashtirish siyosatida muhim vosita bo'lgan. Shuningdek, mahalliy millat vakillaridan malakali rahbar, ishchi va muhandis-texnik xodimlar tayyorlashda ma'lum to'sqinliklar vujudga keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xtayev A. Q. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni "sotsialistik" asosda sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlarini (1917–1941-yillar): t.f.n. dissertatsiyasi. — Toshkent, 2001. — B. 114–115.
2. КПСС. To'rtinchi to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. — Toshkent: O'zbekiston, 1979. — 249 b.
3. O'zbekiston tarixi (1917–1991 yy.) / mas'ul muharrirlar R. Abdullayev, M. Rahimov, Q. Rajabov. — Toshkent: O'zbekiston, 2019. — 417 b.
4. O'zR PDA, 58-fond, 21-ro'yxat, 836-yig'ma jild, 39-varaq.
5. Iymanova D. A. Injener-texnik kadrlarni tayyorlashning sovet amaliyoti: muammolar va natijalar (1930–1941-yillar) // Ma'mun science. — 2024. — № 3. — B. 131.
6. КПСС. To'rtinchi to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. — Toshkent: O'zbekiston, 1979. — 254 b.
7. Sovet O'zbekistoni ishchilar sinfi tarixi / I. M. Mo'minov tahriri ostida. — Toshkent: Fan, 1974. — B. 137.
8. O'zbekiston MA, 737-fond, 1-ro'yxat, 583-yig'ma jild, 40-varaq.
9. Два года социалистического строительства в Узбекистане: отчет правительства УзССР. — 151 с.

10. Правда Востока. — 1932. — 20 декабря.
11. Sovet O'zbekistoni ishchilar sinfi tarixi. — Toshkent: Fan, 1974. — B. 154.
12. Узбекистан за XV лет. Статистический сборник. — Ташкент, 1939. — С. 85.
13. История СССР. — 1972. — № 4. — С. 10–11.
14. Правда Востока. — 1927. — 7 марта.
15. O'zbekiston MA, 737-fond, 1-ro'yhat, 117-yig'ma jild, 48-varaq.
16. O'zbekiston MA, 737-fond, 1-ro'yhat, 117-yig'ma jild, 18-varaq.
17. Ulmasbayev J. N., Sliva S. A. Industrialnoye razvitiye Uzbekistana za gody sovetsoy vlasti. — Tashkent, 1966. — S. 185.
18. O'zbekiston MA, R-97-fond, 1-ro'yhat, 573-yig'ma jild, 8-varaq.
19. O'zbekiston MA, R-97-fond, 1-ro'yhat, 22-yig'ma jild, 86-varaq.
20. Uzbekistan. Ekonomiko-geograficheskaya karakteristika. — Tashkent, 1950. — S. 66, 74.
21. Sovet O'zbekistoni ishchilar sinfi tarixi. — Toshkent: Fan, 1974. — B. 137.
22. Jo'rayev M. Povysheniye kulturno-texnicheskogo urovnya kolxoznogo krestyanstva Uzbekistana. — Toshkent: Fan, 1987. — S. 72.
23. Xaydarov Yu. Rabochiy klass i razvitiye kultury Uzbekistana (20–30-ye gody): avtoref. dis. ... k.i.n. — Toshkent, 1992. — S. 18.
24. O'zR PDA, 58-fond, 14-ro'yhat, 196-yig'ma jild, 22-varaq.
25. O'zbekiston MA, R-84-fond, 1-ro'yhat, 175-yig'ma jild, 31-varaq.
26. Ulmasbayev Sh. N. Promyshlennoye razvitiye Sovetskogo Uzbekistana. — Tashkent, 1958. — S. 131.
27. O'zbekiston MA, R-83-fond, 3-ro'yhat, 116a-yig'ma jild, 264–267-varaqlar.
28. O'zbekiston MA, R-633-fond, 1-ro'yhat, 237-yig'ma jild, 12, 30-varaqlar.
29. Приказ № 191 по Народному комиссариату местной промышленности УзССР. — Ташкент, 22 апреля 1938 г.
30. Ийманова Д. А. Советская практика подготовки инженерно-технических кадров (1930–1941 гг.) // Труды XVI Евразийского научного форума. — Санкт-Петербург, 2025. — С. 113.
31. Sovet O'zbekistoni ishchilar sinfi tarixi. — Toshkent: Fan, 1974. — B. 136.
32. O'zR PDA, 58-fond, 14-ro'yhat, 1242-yig'ma jild, 25–31-varaqlar.
33. O'zR PDA, 58-fond, 14-ro'yhat, 1242-yig'ma jild, 217-varaq.
34. O'zbekiston MA, R-837-fond, 32-ro'yhat, 2927-yig'ma jild, 54-varaq.
35. КПСС. To'rtinchi to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. — Toshkent: O'zbekiston, 1979. — 262 b.
36. O'zbekiston MA, R-837-fond, 32-ro'yhat, 2200-yig'ma jild, 15–16-varaqlar.
37. O'zbekiston kolhoz va sovxozlari tarixi (ocherklar). 1-kitob. — Toshkent: O'zbekiston, 1969. — 20 b.
38. O'zR PDA, 58-fond, 19-ro'yhat, 885-yig'ma jild, 4-varaq.
39. O'zbekiston MA, R-837-fond, 32-ro'yhat, 2200-yig'ma jild, 16-varaq.
40. O'zbekiston MA, R-837-fond, 32-ro'yhat, 2200-yig'ma jild, 17-varaq.
41. Sovet O'zbekistoni ishchilar sinfi tarixi. — Toshkent: Fan, 1974. — B. 138.